



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 15-fevral

70-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

### **Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 70-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldagi 70-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-fevraldagi 70-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni 2025-yilda amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» (keyingi o‘rinlarda - «Yo‘l xaritasi») 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

quyidagilar transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilanganligi:

xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisobiga tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash, mavjud to‘siqlarni bartaraf etish, tashqi bozorlarga yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, transport-logistika xarajatlarini maqbullashtirish;

multimodal tamoyilni maksimal darajada amalga oshirish imkonini beruvchi logistika xizmatlari bozorini rivojlantirish, 3PL va undan yuqori formatda xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan yirik milliy transport operatorlari tashkil etilishini rag‘batlantirish;

mamlakat tranzit salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, shu jumladan, moslashuvchan tarif siyosatini qo‘llash va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish yo‘li bilan qo‘shimcha tranzit yuk oqimlarini jalb etish;

tashqi va ichki moliyalashtirish manbalarini jalb etish ko‘lamini kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash asosida transport infratuzilmasini kompleks va ildam rivojlantirish, hududlarda yuklar shakllanishining asosiy nuqtalarini hisobga olgan holda transport-logistika markazlarining zamonaviy tarmog‘ini shakllantirish;

xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiya qilgan holda mamlakatning logistika tizimi platformalarini shakllantirish, xalqaro yuk tashishlarda raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, logistika sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish;

Konsepsiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilga qadar erishiladigan, shu jumladan, quyidagilarni nazarda tutuvchi asosiy maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlar 3-ildavaga muvofiq belgilanganligi:

avtomobil, temir yo'l va havo transportida xalqaro yuk tashish umumiy hajmini kamida 2 baravarga oshirish;

transport va logistika xizmatlari eksportini 2 baravargacha oshirish;

barcha transport turlarida yillik tranzit yuk tashish hajmini 22 mln tonnaga yetkazish;

konteynerlarda yuk tashish ulushini kamida 1,5 baravarga oshirish;

transport-logistika markazlari tarmog'ini yaratgan holda ularning yuklarga ishlov berish quvvatini kamida 3 baravarga ko'paytirish;

Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida (LPI) O'zbekiston Respublikasining o'rnini 55-pog'onadan past bo'lmagan darajagacha ko'tarish;

belgilanishicha:

Transport vazirligi transport-logistika markazlarining keng tarmog'ini shakllantirish hamda transport-ekspeditorlik faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish masalalari uchun mas'ul hisoblanadi, «E-logistika» axborot tizimida ma'lumotlarni joylashtirgan holda ularning reytingini shakllantiradi va yuritadi;

respublikadagi zamonaviy texnika va uskunar bilan jihozlashga doir namunaviy talablarga javob beradigan transport-logistika markazlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasining Quruqlik portlari to'g'risidagi hukumatlararo bitimi (Bangkok, 2013-yil 1-may) ro'yxatiga qo'shish uchun taklif etiladi va xalqaro ahamiyatga ega obyektlar sifatida qabul qilinishi;

Transport vazirligi tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda transport-logistika markazlarini zamonaviy texnika va uskunar bilan jihozlashga doir namunaviy talablarni ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

Transport vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining yuklarni xalqaro tashishni tashkil etishda transport-ekspeditorlik shartnomasi asosida ko'rsatiladigan transport-ekspeditorlik xizmatlariga qo'shilgan qiymat solig'ining nol stavkasini qo'llash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Transport vazirligi va Soliq qo'mitasi bilan birgalikda 2025-yil 1-iyulga qadar Soliq kodeksiga ushbu banddan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.

Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish muammolarini o'rganish markaziga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklanganligi:

xalqaro transport yo'laklarida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularning yechimlari bo'yicha takliflar tayyorlash, istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirish;

logistika tizimini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlarining transportlogistika xizmatlaridan foydalanishdagi sarf-xarajatlarini kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

transport-logistika va transport-ekspeditorlik xizmatlari bozorini rivojlantirish, transport-logistika markazlarining keng tarmog'ini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Logistika samaradorligi indeksida (LPI) respublikaning o'rnini yaxshilashga to'squinlik qilayotgan mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish va ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq:

bojxona nazorati ostidagi tovarlarni tashiyotgan avtotransport vositalariga faqatgina Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan talablarga javob beradigan transport-logistika markazlari hududida hamda xalqaro tashishlarda foydalaniladigan transport vositalari uchun mo'ljallangan avtoturargohlarda (TIR-parkda) to'xtab turishga ruxsat etiladi;

O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, xorijiy tashuvchilar tomonidan (qo'shni mamlakatlar tashuvchilari bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab avtomobilda yuklarni xalqaro tashishlar faqatgina O'zbekiston ruxsatnomalari yoki ko'p tomonlama ruxsatnomalar mavjud bo'lgandagina amalga oshiriladi;

yangi transport-logistika markazlari, yuk stansiyalari (terminallari) faqat shahar atroflarida tashkil etiladi. Bunda shahar ko'chalarida katta hajmli yuk avtomobillarining harakatlanishiga bosqichma-bosqich cheklovlar o'rnatiladi;

belgilanishicha, xususiylashtirish dasturiga kirgan, shu jumladan, kelgusida xususiylashtirish rejalashtirilgan avtotransport vositalarini saqlash va texnik xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan davlat mulki obyektlari (avtokorxonalar) o'z profilini saqlab qolgan holda ommaviy savdolarga chiqariladi (shahar markazida joylashganlari bundan mustasno).

Bunda obyektlarni savdoga chiqarishda xarid to'lovlarini, miqdoridan qat'i nazar, 5 yilgacha bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati nazarda tutiladi hamda olti oydan ortiq muddatda sotilmasdan turgan obyektlarning boshlang'ich bahosi 30 foizgacha pasaytiriladi.

mazkur bandning to'liq va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ul etib Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A. Ortikov) va Transport vazirligi (I. Maxkamov) belgilanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi hamda Transport vazirligining 2025-yil 1-iyundan boshlab Davlat chegarasi orqali avtomobil o'tkazish punktlarida avtotransport vositalarining elektron navbat tizimini (keyingi o'rinlarda - elektron navbat tizimi) joriy etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

belgilanishicha:

elektron navbat tizimi O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqish yo'nalishida harakatlanayotgan yuk avtotransport vositalari uchun qo'llanadi hamda Transport vazirligining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinadi;

Davlat chegarasi orqali avtomobil o'tkazish punktlari yaqinida kutish zonalarini tashkil etiladi;

elektron navbat tizimi joriy etiladigan Davlat chegarasi orqali avtomobil o'tkazish punktlari ro'yxati hamda ular yaqinida kutish zonalarini tashkil etish talablari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi;

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda tegishli qaror qabul qilishi;

Transport vazirligi va O'zbekiston xalqaro avtomobilda tashuvchilar uyushmasining Xalqaro avtomobil transporti ittifoqi bilan hamkorlikda yuqori malakali va tajribali xorijiy o'qituvchi va instruktorlarni jalb etgan holda Xalqaro avtomobil transporti sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha mintaqaviy o'quv markazini (keyingi o'rinlarda - O'quv markazi) tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi;

belgilanishicha:

O'quv markazi avtomobilda yuk va yo'lovchilarni xalqaro tashish sohasida malakali kadrlar va professional haydovchilar tayyorlovchi nodavlat ta'lim tashkiloti hisoblanishi;

o'quv jarayonlari Yevropa ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan va Transport vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv reja va dasturlariga muvofiq tashkil etilishi;

o'qishni muvaffaqiyatli yakunlagan soha menejerlari va haydovchilarga umume'tirof etilgan xalqaro sertifikatlar (guvohnomalar) beriladi hamda ular avtomobilda xalqaro tashish sohasida litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillaridan o'tishda qabul qilinishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmonida nazarda tutilgan malaka imtihonini topshirish, «ishchi viza»ni rasmiylashtirish, yo'l chiptasini xarid qilish va sug'urta mukofotini qoplash bo'yicha subsidiya va kompensatsiyalar xorijiy transport-logistika tashkilotlariga ishlash uchun belgilangan tartibda ketayotgan xalqaro sertifikatlar (guvohnomalar)ga ega professional haydovchilarga ham tatbiq etilishi;

Bunda haydovchilar «Xorijda ish» mehnat migratsiyasi elektron dasturiy majmuasida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozimligi;

O'quv markazi Toshkent avtomobil va yo'llar texnikumining Toshkent shahri Chilonzor tumani Zavqiy ko'chasidagi bino va inshootlariga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilganligi;

Bunda ushbu obyektida qurilish-ta'mirlash ishlari O'zbekiston xalqaro avtomobilda tashuvchilar uyushmasi tomonidan Toshkent avtomobil va yo'llar texnikumi bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi;

O'zbekiston Respublikasi 1975-yildagi Yuqlarni xalqaro yo'llarda tashish daftarchasini qo'llagan holda yuqlarni xalqaro tashish to'g'risidagi bojxona konvensiyasiga qo'shilgani va unga muvofiq Yuqlarni xalqaro yo'llarda tashish daftarchasi, uni respublika hududiga olib kirishda hamda realizatsiya qilishda, bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgani ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

Transport vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi (keyingi o'rinlarda - Avtomobil yo'llari qo'mitasi)ning umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari bo'ylarida yo'lbo'yi servis («Service area» va «Service point») obyektlarini tashkil etish to'g'risidagi taklifga rozilik berilganligi;

Belgilansinki, «Service area» va «Service point» obyektlarini tashkil etishda yer uchastkalari o'rmon fondi yerlari hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasidan sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar toifasiga o'rnatilgan tartibda o'zgartirilishi;

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari bo'ylarida «Service area» va «Service point» obyektlarini tashkil etishning maqsadli ko'rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Transport vazirligi Avtomobil yo'llari qo'mitasi bilan birgalikda ikki oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritishi:

mazkur qarorga 4-ilovaga muvofiq «Service area» va «Service point» obyektlari tashkil etiladigan yer uchastkalarining manzilli ro'yxatini tasdiqlash;

avtomobil yo'llari bo'yida servis obyektlarini master rejalar asosida qurib bitkazilgan holda tayyor biznes shaklida elektron onlayn auksionga chiqarish tartibini belgilash;

xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llari bo'ylarida «Service area» va «Service point» obyektlariga qo'yiladigan talablarni belgilash.

«O'zavtosanoat» AJ Transport vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda mahalliy ishlab chiqaruvchilardan katta hajmli yuk avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalarni sotib olish uchun samarali moliyalashtirish (zarur hollarda tegishli jamg'arma tashkil qilish) mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishi;

Transport vazirligi tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

2030-yilga qadar Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida (LPI) O'zbekiston Respublikasining o'rnini 55-pog'onadan past bo'lmagan darajagacha ko'tarish choralari ko'rishi;

Transport vazirlari Yevropa konferensiyasi doirasidagi avtomobilda yuqlarni xalqaro tashishning ko'p tomonlama ruxsatnomalar tizimiga qo'shilish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishi;

ikki oy muddatda xalqaro yo'nalishlarda konteynerlarda yuk tashish ulushini kamida 1,5 barobarga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi»ni ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

uch oy muddatda transport-logistika sohasidagi kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohadagi nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga solish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishi;

Transport vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining «Yevropa - Kavkaz - Osiyo» transport koridori (TRASEKA) hukumatlararo komissiyasining doimiy kotibiyatini hamkorlikda moliyalashtirish haqidagi bitimga qo'shilish to'g'risidagi taklifga rozilik berilganligi;

Ushbu Bitimdan kelib chiqadigan majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish manbai etib Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari belgilanligi;

Transport vazirligi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston xalqaro avtomobilda tashuvchilar uyushmasi bilan birgalikda:

uch oy muddatda xorijiy davlatlar bilan avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarliklarini majburiy sug'urtalashning teng huquqlilik tartibini o'rnatish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritishi;

avtomobilda yuklarni xalqaro tashishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfxatarlarni (yuklarning shikastlanishi, yo'qolishi yoki yo'q qilinishi va boshqa holatlar) sug'urtalashni kengaytirish hamda ushbu yo'nalishda milliy tashuvchilar orasida sug'urta madaniyatini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlarini tashkil etishi;

quyidagilarga:

transport vaziri I. Maxkamovga - ilmiy va ta'lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari, mustaqil ekspertlar (konsultantlar), shu jumladan, xorijiy ekspertlarni keng jalb etgan holda Konsepsiya va «Yo'l xaritasi»da nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o'z muddatida, to'liq va sifatli amalga oshirish hamda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlariga - Konsepsiya va «Yo'l xaritasi»da nazarda tutilgan chora-tadbirlar bilan bevosita bog'liqlikda hududlarni rivojlantirish, xususiyy investitsiyalarni keng jalb etgan holda namunaviy talablar asosida transport-logistika markazlari tarmog'ini kengaytirish hamda joylarda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan o'zaro kelishilgan choralarni ko'rish;

Bojxona qo'mitasi raisi A.Mavlonovga - chegara o'tkazish punktlari o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish maqsadida ularni modernizatsiya qilish va kengaytirish choralarni ko'rish hamda chegarada barcha tashuvchilar tomonidan xalqaro yuk tashish shartlariga (ruxsatnoma tizimi, yig'imlar to'lanishi, ruxsat etilgan vazn va gabarit parametrlari) rioya etilishi ustidan davlat nazoratini so'zsiz ta'minlash;

Transport nazorati inspeksiyasi boshlig'i J. Karimovga va Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati boshlig'i Sh.Ibragimovga mamlakat hududida mahalliy va xorijiy tashuvchilar tomonidan xalqaro yuk tashish shartlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini kuchaytirish va ta'minlash bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklatilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 5-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib transport vaziri I.R.Maxkamov belgilanganligi e'tiborga olinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Quyidagilarga:

Transport boshqarmasi boshlig'i B.Bekxodjayevega - ilmiy va ta'lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari, mustaqil ekspertlar (konsultantlar), shu jumladan, xorijiy ekspertlarni keng jalb etgan holda Konsepsiya va «Yo'l xaritasi»da nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o'z muddatida, to'liq va sifatli amalga oshirish hamda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha;

Shahar va tuman hokimlariga - Konsepsiya va «Yo'l xaritasi»da nazarda tutilgan chora-tadbirlar bilan bevosita bog'liqlikda hududlarni rivojlantirish, xususiyy investitsiyalarni keng jalb etgan holda namunaviy talablar asosida transport-logistika markazlari tarmog'ini kengaytirish hamda joylarda maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha tegishli boshqarma va idoralar bilan o'zaro kelishilgan choralarni ko'rish bo'yicha shaxsiy javobgarlik yuklatilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining tegishli o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**